TARBIYALANUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKT RIVOJLANTIRISH MUAMMOLAR.

Nurmuhammadova Mubina Bahodir qizi.
Sharq universiteti talabasi.
Gmail:mnurmuhammedova76@gmail.com

Zamonaviy dunyo bolalarning muloqot maydoni real hayotdan vertual olamga ko‘chishi-bu shunchaki texnologik o‘zgarish emas, balki inson psixologiyasining fundamental o‘zgarishidir.

Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida 19-asrning oxirida vujudga kelib, fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabi asosida bolalar psixologiyasi sifatida qo‘llanib kelinmoqda [1] (E.G‘oziyev "PSIXOLOGIYA" kitobi)

Shuningdek, insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqara olish va bpshqa odamlarning emotsiyalarini to‘g‘ri tushunish hamda ularga nisbatan hamdardlik bildira olish qobilyati bu emotsional intellektning asosiy mazmun mohiyati hisoblansa, tarbiyalanuvchilar bilan ishlaydigan pedagog psixologlarning ko‘maklashtiruvchi tayanchi va asosiy qo‘llanmasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining tub zamirida nafaqat bilimni, balki ruhan sog‘lom, emotsional barqaror shaxsni shakllantirish masalasi yotadi.

Tarbiyalanuvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish bugungi kunda shunchaki tavsiya emas, balki qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan davlat talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yildagi 7-iyundagi 472-son qaroriga muvofiq Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora tadbirlari to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

-Tarbiyalanuvchilarning emotsional-irodaviy sohasidagi buzilishlarini erta aniqlash;

-Nizoli vaziyatlarda o‘zini tutish va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish;

-Psixologik treninglar orqali bolani ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlash vazifalari belgilangan.

Avvalambor har bir shaxs har bir jamiayatning bir qismi sanalgan indon o‘z kechinmalari, hos tuyg‘ulari har bir jarayon mobaynida yuzaga keladigan emotsiyalarini anglay olishi lozim.

O‘zida mujassam bo‘lgan emotsional intellektni anglay olishi bu EQ ning poydevori hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan anglay olish jarayoni emotsional intellektni rivojlantirish uchun qo‘yilgan maqsadning ilk rejasi bo‘lib xizmat qilsa, o‘z ichki emotsional intellektni boshqarish bu asosiy va murakkab reja sifatida tan olinadi.

Emotsional intellektni boshqarish bu jarayonda paydo bo‘lgan ilk emotsiyani nazorat qilish va uni salbiy tomondan ijobiy tomonga o‘zgartirish, emotsiyaga berilayotgan vaqtda uni jilovlay olish kabi muhim funksiyalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Xulosa:

Ta’kidlab o‘tilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga keldim.Emotsional intellektni rivojlantirish bu shunchaki psixologik tushuncha meas balki barkamol avlodni tarbiyalashning strategik yo‘nalishi hisoblanadi.Shuningdek har bir tarbiyalanuvchining hayot yo‘llarida o‘z jasbini tanlashda hayotda o‘z o‘rnini topishida emotsional intellekt muhim rol o‘ynaydi ya’ni jamiyat va boshqalar bilan o‘zaro muloqot hamkasblar va insonlar bilan munozara qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki har bir jarayonda o‘ziga mos muammolar

bo‘lgani kabi Psixologiyaning tarbiyalanuvchilardagi emotsional intellektni rivojlantirishda ham muammolar yo‘q emas albatta.

Tadqiqot doirasida aniqlanganidek bugungi kunda pedagoglarning emotsional kompetensiyasi yetarli darajada emasligi, ta’lim dasturlarida akademik bilimga ko‘proq urg‘u berilishi hamda ota onalar bilan hamkorlikning sustligi emotsional intellekt rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Bu muammolarni hal qilishda avvalambor Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev hamda jonkuyar tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda pedagog psixolog, Maktabgacha va va maktab ta’limi ham harakat qilmoqda.